

RELIGION AT THE CROSSROADS OF POLITICS: THE ROLE OF RELIGIONS IN THE NEW WORLD ORDER

Makhmudova Munisa Jamshid qizi

Bachelor's student The university of World economy and diplomacy

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: munisamaxmudova0717@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Annotation: *This article analyzes the role of religions in social and political life under the conditions of the new political environment. The balance between secularism and religiosity, as well as their significance in the modern system, is examined. The study also highlights how the misinterpretation of religious and political principles can lead to international conflicts and the escalation of violence on a global scale.*

Keywords: *globalization, secularism, saclarization, clericalization, religious extremist groups, act of terrorism, denomination, infrastructure, intervention, principle, stereotype*

РЕЛИГИЯ НА ПЕРЕКРЁСТКИ ПОЛИТИКИ: РОЛЬ РЕЛИГИЙ В НОВОМ МИРОВОМ ПОРЯДКЕ

Махмудова Муниса

Студентка бакалавриата Университет мировой экономики

и дипломатии Ташкент, Узбекистан

E-mail: munisamaxmudova0717@gmail.com

О СТАТЬЕ

Аннотация: *В данной статье анализируется роль религий в социально-политической жизни в условиях новой политической средм. Рассматривается баланс между светскостью и религиозностью, а также их значение в современной системе. Кроме тогоб раскрмвается, как неправильное толкование религиозных и политических принципов может привести к международным конфликтам и эскалации насилия в ммровом масштабе.*

Ключевме слова: *Глобализация, секуляризм, сакрализация, клерилизация, террористический акт, конфессия, инфраструктура, интервенция, принцип, стереотип*

DIN SIYOSAT CHEGARALARIDA: YANGI JAHON TARTIBIDA DINLARNING ROLI

Maxmudova Munisa

Bakalavr talabasi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya

Universiteti Toshkent, O'zbekiston

E-mail:munisamaxmudova0717@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi siyosiy taribot sharoitida dinlarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi o'rni tahlil qilinadi. Dunyoviylik va diniylik o'rtasidagi muvozanat, ular o'rtasidagi uyg'unlikning zamonaviy tizimdagi ahamiyati va aksincha tengsizlik va dinni noto'g'ri talqin qilish orqali yuzaga keladigan xalqaro miqyosdagi qurolli to'qnashuvlar ham yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: globalizatsiya, sekulyarizm, sakralizatsiya, klerikalizatsiya, terrorchilik akti, konfessiya, infrastruktura, intervensiya, prinsip, stereotip

KIRISH

Yangi asr boshlariga kelib, jahon siyosati keskin o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Sovuq urush yakunlanib dunyoda kuchlar nisbati yangicha ahamiyat kasb etayotgan bir paytda din ham siyosiy jarayonlarda muhim rol o'ynashni boshlaydi. Bugungi kunda din faqatgina e'tiqod yoki ibodat qilish tizimi emas, balki jamiyatni birlashtiruvchi, siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi va xalqaro maydonda o'z ta'sirini o'tkazayotgan ma'naviy kuch sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, yangi siyosiy tartibotning eng asosiy xususiyatlaridan biri dunyoning ikki yo'nalishda harakatlanayotganidir. Bir tomondan sekulyarizatsiya jarayoni kuchaymoqda, ikkinchi tomondan esa sakralizatsiya hodisasi qayta jonlanmoqda. Bu ikki jarayon bir-biriga ziddek ko'rinsada, ular zamonaviy jamiyatning ruhiy, mana'viy va siyosiy muvozanatni belgilab beruvchi asosiy omil sifatida qaraladi. Zamonaviy dunyo tizimlari tobora ko'proq dunyoviylik tamoyiliga tayangan holda faoliyat yuritmoqda.

ASOSIY QISM

Ushbu maqolada tarixiy, qiyosiy-siyosiy tahlil metodlaridan, hamda retrospektiv yondashuv metodologiyasidan foydalanilgan.

Dinning jamiyat hayotiga ta'sir etish jarayonini sakralizatsiya va sekulyarizatsiya tamoyillari asosida tahlil qilish mumkin. Sakralizatsiya deganda ijtimoiy hayotni va institutlarni, kishilar hayoti va ongini muayyan diniy e'tiqod doirasida talqin qilish va izohlash tushuniladi.

G'arbda bu jarayon klerikalizatsiya (lotincha "cherkovga oid" degan ma'noni anglatadi) ni yuzaga keltirgan. [1] G'arb ijtimoiy hayotida cherkovlar huquqiy va

siyosiy institut maqomini egallagan. Diniy qoidalardan chetlashish yoki chekinish cherkov tomonidan salbiy baholangan. Bu jarayon diniy mutassiblik ko'rinishida Markaziy Osiyoda ham shakllangan. Insoniyatning ilmiy merosiga beqiyos hissa qo'shgan olimlardan Jordano Bruno, Galileo Galiley, Nikolay Kopernik, sharqda esa Umar Hayyom, Mashrab va Anbar Otin kabi ilm namoyondalari din peshvolari tomonidan ta'qib ostiga olingan. Bu davrda ilm-fan dinga bo'ysundirilgan, insonning shaxsiy hayoti va hayot tarzi ham din normalari asosida ma'lum bir qolipga solingan. Bu kabi intervensiyalar o'rta asrlarda dinning nafaqat siyosiy, balki shaxsiy hayotda ham katta ta'sirga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Zamonaviy dunyo sharoitida esa sakralizatsiyaga qarama-qarshi tamoyil sekulyarizatsiya jarayoni shakllanib, XXI asrning o'ziga xos xususiyatlaridan biriga aylanmoqda. "Sekulyarizatsiya" so'zi lotincha "saeculum" so'zidan olingan bo'lib, "dunyoviy" degan ma'noni anglatadi. [2] Bu jarayon keng ma'noda dinning jamiyat va kishilar hayotidagi mutlaq hukmronligiga barham berish, hokimiyatni din ta'siridan xalos qilish va dunyoviy taraqqiyot yo'liga o'tish hisoblanadi. Dunyoviy siyosiy tartibot - bu davlat boshqaruvi va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida dinning rasmiy aralashuviga yo'l qo'ymaslik tizimidir. Biroq bu holat dinga bo'lgan ehtiyoj yoki uning ijtimoiy hayotdagi o'rnini yo'qqa chiqarmaydi. Aksincha sekulyar tizimda ham dinlarning axloqiy, madaniy va fuqarolik ongini shakllantirishdagi roli saqlanib qoladi. Sekulyarizatsiya jarayoni din va diniy tashkilotlarning jamiyat hayotidagi o'rnini o'zgarishi va dinning davlatdan ajralishiga olib keladi.

Bu prinsip O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi qonuni bilan huquqiy kafolatlangan. Konstitutsiyaning (2023-yil yangi tahrirdan) 75-moddasida: "Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi. Davlat qonunda belgilangan tartibda faoliyat yuritayotgan diniy tashkilotlarning erkinligini kafolatlaydi" - deb belgilangan. [3] Bu norma nafaqat diniy erkinlikni, balki ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlashda xizmat qiladi.

Bu jarayon bir so'z bilan aytganda, fan va dinning teng rivojlanishi, o'zaro hamjihatlik kafolati hisoblanadi.

Sekulyarizatsiya jarayoni qanchalik keng xalq ommasiga yoyilib, davlatlarning muqobil boshqaruv yo'nalishiga aylanayotganiga qaramasdan, din hali-hanuz nafaqat ijtimoiy, balki siyosiy jarayonlarga ta'sir eta oladigan va hatto mojarolarni keltirib chiqarayotgan kuch sifatida talqin qilinmoqda. Hind ma'rifatparvari Mahatma Gandining fikrlari ham yuqoridagilarni tasdiqlaydi. "Din bu insonning

ichki quvvat manbayi. Ammo u siyosiy qurolga aylansa, insoniyatni bo'lib tashlaydi. Bunga misol tariqasida hind va musulmonlar o'rtasidagi nizolarni va uning natijasida Gandining o'zini ham bu falokat qurboni bo'lganini ko'rsatish mumkin. [4]

Ammo qaysi din bo'lishidan qat'iy nazar, ularning hech biri insonlarni buzg'unchilik yoki qo'poruvchilik kabi shafqatsizliklarga boshlamaydi. Aksincha din nomidan sodir etilayotgan har qanday jinoyatlarning ortida inson omili yotadi. "Din urush uchun emas, tinchlik uchun yaratilgan. Kim din nomidan urush qiladi, u aslida unga xiyonat qiladi". [5] Islom dini misolida bu masalani tahlil qiladigan bo'lsak, eng ashaddiy va dunyoga eng ko'p xavf solayotgan diniy-ekstrimistik guruhlar, xususan, Al-Qoida, Hamas, Jihod, Hizbulloh din nomidan ish yuritib, butun dunyoga tahdid solishga harakat qilishadi. Bunga misol qilib 2001-yil 11-sentabr voqealarini keltirish mumkin. Al-Qoida rahbarligida uyushtirilgan bu terrorchilik akti natijasida nafaqat 3mingga yaqin tinch aholi halok bo'lgan va mahalliy infratuzilmalarga ham ziyon yetgan, balki dunyo aholisida islom diniga nisbatan noto'g'ri qarashlar, qo'rquv va shu kabi stereotiplarning shakllanishiga sabab bo'lgan. [6] Shu tarzda diniy qadriyatlarning noto'g'ri talqini jamiyatda nizolar va ommaviy qurolli to'qnashuvlarga sabab bo'lib, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda sezilarli ta'sir o'tkazadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi davrda din tushunchasi faqatgina e'tiqod tizimi emas, balki madaniy va siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi kuch sifatida maydonga chiqadi. Dinlarning asosiy funksiyasi tinchlik, diniy bag'rikenglik va tolemlilikni rag'batlantirish bo'lishiga qaramay, noto'g'ri talqin etilgan holatlarda konfessiyalararo mojarolar va qurolli to'qnashuvlarga ham sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, diniy omillarni hisobga olgan holda, ularning to'g'ri talqin qilinishiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Q. O. Mahkamov. Din sotsiologiyasi. Namangan 2024
2. D. Rahimjonov "Dunyo dinlar tarixi" 133-bet Toshkent 2017
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 43-bet. Toshkent 2023
4. https://www.mkgandhi.org/my_religion/my_religion.php
5. <https://news-archive.hds.harvard.edu>
6. Lawrence Wright "The Looming Tower: Al-Qaeda and the road to 9/11" published in 2006, 400-470 pages